YUQORI SINF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING ILMIY-NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.

Zokirjonova Munavvara Zohidjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti,
Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi
pedagogika nazariyasi 1 kurs magistranti
E-mail: munavvarazokirjonova555@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-4539-2448

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda pedagogik hamkorlikning nazariy-metodologik asoslari hamda uning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentlikning shakllanishi o'quvchining nafaqat til va nutqqa oid bilimlarni egallashi, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, o'z fikrini mustaqil ifodalashi hamda boshqalar bilan samarali hamkorlik qilishi bilan bog'liq jarayon sifatida tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik hamkorlik ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlikda o'qitish nazariyalariga oid ilmiy qarashlar qiyosiy o'rganiladi. Alohida e'tibor hamkorlik jarayonida o'quvchining muloqot subyekti sifatidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va o'zaro mas'uliyatni his etish xususiyatlariga qaratiladi. Mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish orqali yuqori sinflarda kommunikativ rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik omillarning o'zaro aloqadorligi aniqlashtiriladi. Tahlil natijasida pedagogik hamkorlikning yuqori sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil ekanligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar. *Pedagogik hamkorlik, kommunikativ kompetentlik, yuqori sinf o'quvchilari, tengdoshlararo muloqot, o'zaro fikr almashish, jamoaviy faoliyat, pedagogik mexanizmlar, individual masuliyat.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы и педагогические возможности педагогического сотрудничества в развитии коммуникативной компетентности учащихся старших классов. Формирование*

коммуникативной компетентности анализируется как процесс, связанный не только с усвоением языковых и речевых знаний, но и с включением обучающегося в социальные отношения, самостоятельным выражением собственных мыслей и эффективным взаимодействием с окружающими. В статье проводится сравнительный анализ научных подходов к педагогическому сотрудничеству, социальному взаимодействию и теориям кооперативного обучения.

Отдельное внимание уделяется активности обучающегося как субъекта коммуникации, его самостоятельному мышлению и способности осознавать взаимную ответственность в процессе сотрудничества. Посредством обобщения существующих научных подходов уточняется взаимосвязь педагогических факторов, способствующих коммуникативному развитию учащихся старших классов. По результатам анализа обосновывается положение о том, что педагогическое сотрудничество выступает важным педагогическим фактором развития коммуникативной компетентности учащихся старших классов.

Ключевые слова. *Педагогическое сотрудничество, коммуникативная компетентность, учащиеся старших классов, кооперативное обучение, взаимодействие между сверстниками, социальное взаимодействие, диалогическое общение, обмен мнениями, коллективная деятельность, педагогические механизмы, индивидуальная ответственность.*

SCIENTIFIC, THEORETICAL AND CONSEPTUAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL COLABORATIONS IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF UPPER SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations and pedagogical potential of pedagogical collaboration in developing the communicative competence of upper secondary school students. The formation of communicative competence is analyzed as a process associated not only with the acquisition of linguistic and speech-related knowledge but also with others. The article provides a comparative analysis of scholarly perspectives on pedagogical collaboration, social interaction, and theories of cooperative learning.*

Special attention is devoted to learners' active role as participants in communication, their independent thinking, and their awareness of mutual responsibility within the collaborative process. By synthesizing existing scholarly approaches, the article clarifies the interrelationship between pedagogical factors that support the communicative development of upper secondary school students. Based on the analysis, the article substantiates the position that pedagogical

collaboration serves as an important pedagogical factor in developing the communicative competence of upper secondary school students.

Keywords. *Pedagogical collaboration, communicative competence, upper secondary school students, cooperative learning, peer interaction, social interaction, exchange of ideas, collaborative activities, pedagogical mechanisms, individual accountability.*

KIRISH.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashi, balki mustaqil shikrlashi, o'z qarashlarini asoslab ifodalashi, boshqalarning fikrini tinglashi va turli ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirisha olishi ham muhim edagogic natijalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ta'limning mazmuniy maqsadlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi o'quvchining individual faoliyati bilan bir qatorda, ijtimoiy munosabatlar va o'zaro hamkorlik jarayonlariga ham bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, ta'lim oluvchilarning o'zaro fikr almashishi, umumiy muammolarni muhokama qilishi va birgalikda qaror qabul qilishi uchun sharoit yaratadigan hamkorlik pedagogikasi mazkur jarayonni tashkil etishning muhim nazariy-amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida [1] ta'lim tizimining huquqiy asoslari va ta'lim sohasidagi munosabatlarningasosiy tamoyillari belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdanyangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida [2] xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va zamonaviy ta'lim yondashuvlari keng joriy etish vazifalari belgilangan. Ushbu hujjatda ilgari surilgan vazifalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan, ularning amaliy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan edagogic yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur jarayonda hamkorlik pedagogikasi o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, fikr almashish, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish va o'zaro mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim edagogic yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Uning mohiyati ta'lim subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni bir tomonlama bilim uzatish tamoyilidan o'zaro ishonch, teng huquqli ishtirok, o'zaro yordam va birgalikdagi faoliyat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etishdan iborat. Bunday edagogic muhitda o'quvchi tayyor bilimlarni qabul qiluvchi passiv ishtirokchi emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlashda hamkorlikka asoslangan faoliyat ularning mustaqil pozitsiyasini

shakllantirish, o'z qarashlarini dalillar bilan ifodalash, muhokama va munozaralarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta'lim jarayonining mazkur xususiyatlari kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasini ham alohida ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega muammolar qatoriga olib chiqadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida xorijiy tilni o'qitish amaliyotida o'quvchilarning kommunikativ faolligini ta'minlash masalasi hamon muayyan edagogic muammolar bilan tavsiflanadi. Jumladan, ta'lim jarayonida til materiallarini o'zlashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilishi, o'quvchilarning mustaqil fikr bildirishiga yo'naltirilgan vaziyatlarning yetarli darajada yaratilmasligi, ayrim hollarda muloqotni asosan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar doirasida cheklanishio'quvchilarni faol kommunikativ tajriba orttirish imkoniyaatlarini kamaytiradi. Natijada o'quvchi muayyan til bilimlariga ega bo'lsa-da, ularni erkin muloqot, fikr almashish, muhokama va hamkorlik jarayonida mustaqil qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Muammoning yana bir muhim jihati shundaki, hamkorlikka asoslangan topshiriq va mashg'ulotlarni tashkil etishning o'zi kommunikativ kompetentlikning samarali rivojlanishini to'liq kafolatlamaydi. Buning uchun hamkorlik faoliyatining maqsadi, mazmuni, ishtirokchilarning vazifalari, o'zaro muloqot mexanizmlari, edagogic shart-sharoitlari hamda natijalarni baholash mezonlari o'zaro uyg'unlikda tashkil etilishi lozim. Aks holda, guruhli faoliyat o'quvchilarning barchasini teng darajada muloqotga jalb qilmaydigan, ayrim ishtirokchilarning faolligi bilan cheklanadiganjarayonga aylanishi mumkin. Demak, hamkorlik pedagogikasining kommunikativ rivojlanishga ta'sirini faqat tashkiliy faoliyat shakllari orqali emas, balki uning nazariy asoslari, edagogic mexanizmlari va ta'limiy imkoniyatlari yaxlitligi nuqtayi nazaridan o'rganish zarur.

Shu jihatdan, umumta'lim maktablarining yuqori sinfarida hamkorlik pedagogikasi asosida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik tadqiqotni talab etadi. Mazkur yo'nalishda hamkorlik muhitini shakllantirishning edagogic shart-sharoitlarini aniqlash, o'quvchilarning o'zaro ta'siri va kommunikativ faolligini ta'minlovchi mexanizmlarni asoslash, ingliz tilini o'qitish jarayonida samarali hamkorlik shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Binobarin, hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit edagogic yondashuvni shakllantirish zaruratini belgilaydi.

Ushbu dolzarblik zamirida yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida rivojlantirishga

yo'naltirilgan yaxlit edagogic modelni ishlab chiqish g'oyasi mujassamdir. Tadqiqot doirasida ushbu jarayonning edagogic shart-sharoitlari, hamkorlik mexanizmlari hamda o'quvchilarning o'zaro ta'sirini ta'minlovchi samarali strategiyalarni tizimlashtirish nazarda tutiladi. Olingan nazariy xulosalar asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mualliflik edagogic modelini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini ingliz tili ta'limi misolida tajriba-sinovdan o'tkazish ko'zda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Hamkorlik pedagogikasi va kommunikativ kompetentlik masalalari zamonaviy edagogic tadqiqotlarda o'zaro bog'liq yo'nalishlar sifatida o'rganib kelinmoqda. D. Johnson va R. Johnson (2009)[3] hamkorlikda o'qitishning nazariy asoslarini ijtimoiy o'zaro bog'liqlik nazariyasi bilan izohlab, o'quvchilarning umumiy maqsad sari birgalikdagi faoliyati va individual mas'uliyati ta'lim samaradorligining muhim omillari sifatida asoslangan. R. Oxford (1997)[4] esa hamkorlikda o'rganish, o'zaro muloqotning til ta'limidagi uzviy aloqasini yoritgan. Kommunikativ kompetentlikning nazariy asoslari D. Hymes (1972)[5], M. Canale va M. Swain (1980)[6] tadqiqotlarida yoritilgan bo'lib, ularda mazkur kompetentlik til bilimlaridan foydalanish bilan bir qatorda, turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bog'liq holda talqin etilgan.

Markaziy Osiyo tajribasini tahlil qilgan M. I. Tulepov va S. I. Tulepova (2015)[7], D. Assylzhanova va S. Uzakbayeva (2023)[8] mintaqada kooperativ ta'lim texnologiya va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish tendensiyalarini ko'rsatgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham mazkur yo'nalishdagi izlanishlar olib borilgan. Xususan, U. R. Inagamovaning (2022)[9] "Collaborative learning as the Basis for the Development of Foreugn Language Communicative Competence" nomli maqolasi kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning muhim edagogic asoslaridan biri sifatida yoritilgan. S. S. Evatovning (2025)[10] "Pedagogical Technology for developing of Adolescent Students Based on the Interaction of Family and School" nomli tadqiqotida maktab va oila hamkorligida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning imkoniyatlarini ko'rib chiqqan. Muallifning avvalgi ilmiy izlanishlarida ham hamkorlikdagi topshiriqlar asosida o'quvchilarning tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi o'rganilgan. Mazkur tadqiqotda justlik va kichik guruhlarda ishlashning o'quvchilar nutqiy faolligi hamda o'zaro muloqotini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. [11]

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili hamkorlik pedagogikasi va kommunikativ kompetentlikning o'zaro bo'g'liqligi turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilganini


ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining nazariy tamoyillari, edagogic shart-sharoitlari o'zaro ta'sir mexanizmilarini yagona tizim asosida birlashtirish masalasi alohida tadqiqotni talab etadi. Aynan shu jihatdan mazkur tadqiqotda hamkorlik pedagogikasi asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit edagogic modelni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tadqiqot doirasida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish o'quvchining faqat fikrini o'g'zaki ifodalash qobiliyati bilan emas, balki suhbatdoshni tinglash, axborotni anglash, o'z nuqtayi nazarlarini asoslash vasamarali muloqotga kirishish ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda hamkorlikka asoslangan edagogic yondashuvning imkoniyatlari tizimli ravishda o'rganildi.

Tahlillar asosida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi mualliflik modelini ishlab chiqildi. Modelning asosiy g'oyasi o'quvchilarning individual nutqiy imkoniyatlarini hamkorlikdagi faoliyat bilan uyg'unlashtirish, ularni o'zaro fikr almashish, umumiy qaror qabul qilish va jamoaviy natija uchun mas'uliyatni his etishga yo'naltirishdan iborat.

Model beshta o'zaro bog'liq komponentni qamrab oladi: *maqsadli, nazariy-metodolik, mazmuniy, jarayonli-texnologik hamda baholash-natijaviy komponentlar*.ular ta''im jarayonining maqsadini belgilash, metodologik asoslarini aniqlash, mazmunni shakllantirish, hamkorlik faoliyatini tashkil etish va erishilgan natijalarni baholashni ta'minlaydi.



1-rasm. Hamkorlik pedagogikasi asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish modeli.

Jarayonli-texnologik komponentda juftlik va kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, savol-javob, fikr almashish hamda jamoaviy topshiriqlarni bajarish kabi usullardan foydalanish nazarda tutiladi. Bunda har bir o'quvchining individual ishtiroki bilan bir qatorda, guruhning umumiy natijasiga qo'shgan hissasi ham muhim hisoblanadi.

O'quvchilarning kommunikativ kompetentligini baholash uchun motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli hamda hamkorlik va ijtimoiy o'zaro ta'sir mezonlar asosida kompetentlikning yuqori, o'rta va quyi darajalarini aniqlash ko'zda tutiladi. Baholash natijalari esa ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan model umumiy pedagogik xususiyatga ega bo'lib, muayyan fan doirasi bilan cheklanmaydi. Uni ingliz tili darslari misolida amaliyotga tatbiq etish va tajriba-sinovdan o'tkazish orqali samaradorligini aniqlash mumkin. Shu jihatdan model o'quvchilarda muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash, o'zaro mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik yechim sifatida namoyon bo'ladi. Ilgari surilayotgan konsepsiya va modelning istiqbolligi uning turli ta'limiy vaziyatlar hamda fanlar doirasida qo'llash imkoniyatiga egaligi bilan belgilanadi.

XULOSA.

O'rganilgan nazariy qarashlar va amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish faqat tilga oid bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki ularning o'zaro muloqotga kirishishi, fikr almashishi va mustaqil munosabat bildirish imkoniyatlarini kengaytirishni ham talab etadi. Shu jihatdan hamkorlik pedagogikasio'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularda muloqot madaniyati va o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogic yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida hamkorlik pedagogikasi asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'nalgirilgan mualliflik modeli taklif etildi. Modelda tinglash va tushunish, hamkorlikdagi o'zaro ta'sir, og'zaki nutq hamda kommunikativ kompetentlikning izchil rivojlanishi o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida qaraladi. Uni amalga oshirishda ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual mas'uliyat, bevosita muloqot va birgalikda muammo yechish kabi pedagogik shart-sharoitlar muhit ahamiyat kasb etadi.

Taklif etiladigan modelning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarini Namangan viloyatidagi tanlangan umumta'lim maktabida 10-11-sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etish rejalashtirilmoqda. Tajriba-sinov jarayonida ingliz tili darslariga hamkorlik strategiyalarini izchil tatbiq etish hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetentligidagi o'zgarishlarni belgilangan mezon va diagnostic vositalar asosida baholash ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan yondashuv o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Johnson, D.W., Johnson, R. T. an educational Psychology Success Story: Social Independence Theory and Cooperative Learning// Educational Researcher. – 2009.
4. Oxford. R. L. Cooperative Learning, Collaborative Learning, and Interaction: Three Communicative Strands in the Language Classroom//The Modern Language Journal. – 1997.
5. Hymes, D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / Ed. By J. B. Pride, J. Holmes. – 1972.

6. Canale. M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980.

7. Tulepov, M. I., Tulepova, S. I. Formation of Pedagogical Communicative Competence of Students by Peer Learning // Journal of Educational Sciences. – 2015.

8. Assylzhanova, D. Y., Uzakbayeva S. A. Formation of Foreighn Language Communicative Competence of Primary School Students Based on Cooperative Learning Technology. – 2023.

9. Inagamov, U. R.collaborative learning as the Basis for the Development of Foreighn Language Communication Competence // International Journal of Integrated Education. – 2022.

10. Evatova, S. S. Pedagogical Technology for Developing the Communicative Competence of Adolescent Student Based on the Interaction of Family and School // Inter Education & Global Study. – 2025.

11. Zokirjonova. M. Z. Hamkorlikdagi topshiriqlar orqali o'quvchilarning tinglash va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish // Raqamli-pedagogik transformatsiya va zamonaviy ta'limning tadqiqot modellari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – 2026.